



EKOLOGIK HUQUQLARNI HIMOYA QILISHDA IQLIM BO'YICHA SUD DA'VOLARINING ROLI: MARKAZIY OSIYO VA O'ZBEKISTON UCHUN IMKONIYATLAR VA TO'SIQLAR

Kamilov Oybek Hamidjonovich

Ilmiy rahbar: Green Universiteti "Ekologik fanlar va barqaror rivojlantirish" kafedrasida katta o'qituvchisi, y.f.f.d., PhD

Mirzaturg'unova Nigoraxon Mirzaanvar qizi

O'zbekiston

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti talabasi, Ekologik huquq yo'nalish magistranti

O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20267614>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-may 2026 yil
Ma'qullandi: 16-may 2026 yil
Nashr qilindi: 18-may 2026 yil

KEY WORDS

iqlim bo'yicha sud da'volari, ekologik huquqlar, iqlimiy adolat, Markaziy Osiyo, inson huquqlari..

ABSTRACT

Iqlim o'zgarishlari nafaqat tabiatga, balki insonlarning kundalik hayotiga, jumladan, sog'lig'iga, oziq-ovqatiga, uy-joyiga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu sababli so'nggi yillarda iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq ekologik huquqlarni sudda himoya qilish amaliyoti yangi bosqichga chiqdi. Mazkur maqolada iqlim o'zgarishlari va ekologik huquqlar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi; Germaniya, Yevropa va Pokistondagi yangi sud ishlari, jumladan, Neubauer v. Germaniya, Duarte Agostinho v. Portugaliya va 32 ta davlat, hamda Pokiston iqlim amaliyoti orqali inson huquqlarini iqlim talablari asosida himoya qilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo va O'zbekiston uchun ekologik huquqlar himoyasida mavjud muammolar va huquqiy bo'shliqlar aniqlanadi hamda amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

2021-yilda Germaniya Federal Konstitutsion Sudi tarixda birinchi marotaba yosh fuqarolarning kelajakdagi erkinliklarini iqlim siyosati bilan bevosita bog'ladi. Bu qaror oddiy ekologik munozara emas edi — u iqlim o'zgarishini inson huquqlari masalasi sifatida rasmiy tarzda tan oldi. Bir yil o'tmay, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Sudi ham o'z tarixida birinchi marotaba iqlim shikoyatini ko'rib chiqishi uchun qabul qildi. Bu ikki voqea birgalikda shuni ko'rsatdiki, iqlim o'zgarishlari endi faqat siyosatchilar va olimlar uchun masala emas — u sudyalarda, advokatlar va fuqarolar uchun ham dolzarb huquqiy muammoga aylandi.

O'zbekiston uchun bu jarayon begona emas. Mamlakatimiz iqlim o'zgarishlarining oqibatlarini o'zida his qilmoqda: qishloq xo'jaligiga zarar yetkazayotgan qurg'oqchilik, tog' muzliklarining erishi shular qatorida.

Ushbu maqola aynan shu savol atrofida qurilgan: ekologik huquqlarni iqlim o'zgarishlari kontekstida sudda himoya qilish O'zbekiston uchun qanchalik real va qanchalik zarur? Xalqaro amaliyotda to'plangan tajriba bizga nima o'rgatadi? Va O'zbekistonda bu yo'lni bosib o'tish uchun qanday huquqiy asoslar va to'siqlar mavjud?

Tadqiqotda huquqiy qiyosiy tahlil, xalqaro sud amaliyotini o'rganish va O'zbekiston qonunchiligi bilan xalqaro me'yorlarni solishtirish metodlaridan foydalanildi. Maqola o'zbek va xalqaro ilmiy adabiyotlar, BMT hujjatlari va sud qarorlariga asoslanadi.

2. Iqlim o'zgarishi va ekologik huquqlar o'rtasidagi bog'liqlik

Iqlim o'zgarishi va inson huquqlari o'rtasidagi bog'liqlikni birinchi marotaba xalqaro miqyosda rasman tan olish 2008-yilda BMTning Inson Huquqlari Kengashining 7/23-rezolyutsiyasida bo'ldi. Ushbu hujjatda iqlim o'zgarishlari "dunyo bo'ylab odamlar va jamoatchilikka zudlik bilan va keng ko'lamda tahdid soladi" deb qayd etildi. Keyinchalik, 2021-yilda BMT Bosh Assambleyasi 76/300-rezolyutsiyasi bilan toza, sog'lom va barqaror atrof-muhitda yashash huquqini universal inson huquqi sifatida e'lon qildi — bu xalqaro huquq tarixida muhim qadam bo'ldi.

Huquqiy doktrina nuqtai nazaridan, iqlim o'zgarishlarining inson huquqlariga ta'siri ikki muhim savolni tug'diradi. Birinchisi — javobgarlik masalasi: iqlim o'zgarishlari inson huquqlarini buzsa, bu uchun kim javob beradi? Ikkinchisi — himoya mexanizmi masalasi: ushbu huquqlarni qanday vosita orqali himoya qilish mumkin? Iqlimiy adolat aynan shu ikki savolga javob izlash jarayonida shakllangan huquqiy tamoyildir.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham iqlim o'zgarishlari va inson huquqlari o'rtasidagi masalalar yaqin va uzoq kelajakda namoyon bo'lishi kutilmoqda.

Xususan, Jahon banki (2023) hisobotiga ko'ra, iqlim o'zgarishlariga moslashish bo'yicha choralar ko'rilmasa, O'zbekiston iqtisodiyoti 2050-yilga qadar 10% pastroq bo'lishi kutilmoqda va bandlik darajasi ham sezilarli pasayishi mumkin (World Bank, 2023, p. 15). Ayni damda bu fermerlarning hosildorligi kamayishi, shahar aholisining yoz issig'i xavfi ostida qolishi va suv tanqisligi sababli yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishlarni anglatadi. Inson huquqlari va iqlim o'zgarishlari o'rtasidagi bu to'g'ridan-to'g'ri aloqa O'zbekistonda ham huquqiy himoyani yangi bosqichga olib chiqishiga undaydi.

3. Iqlim bo'yicha sud da'volari orqali inson huquqlarini himoya qilish

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq sud da'volarining inson huquqlari yo'nalishi boshqa doir yo'nalishlardan bir jihatda keskin farqlanadi: u davlatning harakat qilmaslik holatini ham huquqbuzarlik deb baholaydi. Ya'ni davlat iqlim o'zgarishlari sababli fuqarolar huquqlariga zarar yetayotganini bila turib, uni oldini olish uchun yetarlicha chora ko'rmasa, bu konstitutsiyaviy yoki xalqaro huquq normalarini buzishi mumkin.

Bu yondashuv uchun uchta huquqiy asos mavjud. Birinchi asos — konstitutsiyaviy kafolatlar: ko'plab davlatlar konstitutsiyasida sog'lom muhitda yashash huquqi mustahkamlangan bo'lib, sudlar bu normalarni iqlim majburiyatlariga nisbatan qo'llaydi. Ikkinchi asos — xalqaro inson huquqlariga doir shartnomalari: Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICCPR,1966), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (ICESCR,1966) va mintaqaviy inson huquqlari konvensiyalari iqlim talablarini asoslash uchun ishlatilmoqda. Uchinchi asos — davlatning ijobiy majburiyati: davlat faqat huquqlarni buzmaslik bilan cheklanib qolmay, ularni faol himoya qilishi ham shart.

Inson huquqlariga asoslangan iqlimiy adolat amaliyotining kuchli tomoni shundaki, u mavhum ekologik manfaatlar o'rniga aniq shaxslar va guruhlarining real huquqlaridan kelib chiqadi. Bu da'volarni sudlarda ko'rib chiqishni huquqiy jihatdan osonlashtiradi va da'vogarning sud jarayoniga qo'shilishini oqlaydi.

4. Xalqaro tajriba: Yangi davr sud ishlari

4.1. Neubauer va boshqalar — Germaniya davlatiga qarshi (Neubauer and Others v. Germany) ishi (2021)

Germaniya Federal Konstitutsion Sudining 2021-yil 24-martdagi qarori iqlimiy adolat tarixida yangi sahifani ochdi. Yosh faollar guruhi — jumladan, Luisa Neubauer — 2019-yilgi Federal Iqlim O'zgarishlaridan Himoya Qonunining (Klimaschutzgesetz) kelajak avlod huquqlarini yetarlicha himoya qilmasligini da'vo qildi. Sud ularning talabini qisman qoniqtirdi.

Sudning asosiy argumenti shundan iborat edi: hozirgi avlod 2030-yilga qadar issiqxona gazlari chiqindilarini yetarlicha qisqartirmasa, bu kelajak avlodning ozodligi va faollik doirasini toraytiradi. Chunki ular keskin va og'ir qisqartmalarni amalga oshirishga majbur bo'ladi — ya'ni hozirgi siyosiy kechiktirish kelajak fuqarolarning erkinligini cheklaydi. Federal parlament Bundestag 2022-yilga qadar qonunni yangilab, 2045-yilga qadar iqlim neytralligi maqsadini kiritdi (BVerfG, 2021).

Bu ish uchta jihatdan o'ziga xos. Birinchidan, kelajak avlod huquqlari birinchi marotaba bevosita konstitutsiyaviy himoya obyekti sifatida tan olindi. Ikkinchidan, sud parlament qonuniga nisbatan faol nazorat funksiyasini amalga oshirdi. Uchinchidan, iqlim siyosati va individual erkinlik o'rtasidagi bog'liqlik huquqiy jihatdan asoslandi. Neubauer ishi Yevropa bo'ylab o'xshash da'volar uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

4.2. Duarte Agostinho va boshqalar — Portugaliya va 32 ta davlatga qarshi (Duarte Agostinho and Others v. Portugal and 32 Others) ishi (2023)

Duarte Agostinho ishi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudida ko'rilgan birinchi iqlim ishidir. Olti nafar portugaliyalik yosh fuqaro Yevropa Kengashining 32 ta a'zo davlatiga — jumladan, atmosferaga eng ko'p issiqxona gazi chiqaradigan Rossiya, Turkiya va Germaniyaga — qarshi shikoyat bilan murojaat qildi. Ular 2017-yildagi Portugaliya o'rmon yong'inlari iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lib, ularning sog'lig'iga, ruhiy holatiga va kelajak istiqbollari zarar yetkazganini da'vo qildi.

Duarte Agostinho ishining ahamiyati shundaki, u birinchi marotaba bir davlatning iqlim harakatsizligi boshqa davlat fuqarolariga zarar yetkazishi masalasini — ya'ni iqlim huquqining transcargaraviy (transboundary) xarakterini — sudda ko'tardi.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi Katta palatasi 2024-yilda Shveytsariyaga qarshi boshqa ish — Klimasenioren v. Switzerland — bo'yicha tarixiy qaror chiqardi. Sud Shveytsariya hukumati Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasining 8-moddasi — xususiy va oilaviy hayotga hurmat qilish huquqini buzganini aniqladi. Bu YeIHSning iqlim sohasidagi birinchi ma'naviy majburiyat yaratuvchi qaror bo'ldi (ECHR, 2024).

4.3. Pokistonda iqlim bo'yicha sud amaliyoti

Pokiston rivojlanayotgan davlatlar orasida "iqlimiy adolat" amaliyotida eng ilg'or tajribaga ega. Leghari v. Pakistan (2015) ishidan keyingi yillarda Lahor Oliy sudi iqlim masalalarini doimiy kuzatib boradigan maxsus mexanizmni tashkil etdi. Bu mexanizm sudning odatiy qaror chiqarish rovidan chiqib, faol monitoring funksiyasini o'z zimmasiga olganini anglatadi.

2018-yilda Pokiston Parij bitimi majburiyatlarini milliy qonunchiligi bilan uyg'unlashtirish maqsadida Iqlim O'zgarishi Qonunini qabul qildi. Ushbu qonun asosida bir qator yangi da'volar qo'zg'atildi. Jumladan, Balujiston viloyatidagi suv tanqisligi muammosi, Karakoram muzliklarining erishi oqibatidagi sel xavfi va Sind viloyatidagi issiqlik to'lqinlari bilan bog'liq ishlar Pokiston sudlarida ko'rildi (Ali & Bhutta, 2020).

Pokiston tajribasining Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ahamiyati katta, chunki ular bir qator umumiy xususiyatlarga ega: rivojlanayotgan iqtisodiyot, agrar sektori ulushi yuqori, iqlim o'zgarishlariga nisbatan zaif, va suvga bog'liq iqtisodiy tizim mintaqa davlatlariga hosdir. Pokistonda "iqlimiy adolat davlat iqlim siyosatini yaxshilashga hissa qo'shdi — bu tajribani O'zbekiston uchun ham qo'llash mumkin.

5. Orhus Konvensiyasi va Iqlimiy adolat

1998-yil 25-iyunda Daniyaning Orhus shahrida imzolangan BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining "Axborotdan foydalanish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va atrof-muhit masalalarida adolatli suddan foydalanish to'g'risida"gi konvensiya — xalqaro ekologik huquqning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanadi. Konvensiya uchta ustunda qurilgan: axborotdan foydalanish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va odil sudlov huquqi.

Birinchi ustun — axborotdan foydalanish — deganda davlat idoralari ekologik ma'lumotlarni fuqarolarga so'rovsiz ham, so'rov bo'yicha ham taqdim etishi lozimligi tushuniladi. Ikkinchi ustun — qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki — ekologik ahamiyatga ega loyihalar va siyosat hujjatlarini ishlab chiqishda fuqarolar va jamoat tashkilotlarining qatnashishi ta'minlanishini nazarda tutadi. Uchinchi ustun — odil sudlov huquqi — fuqarolar va jamoat tashkilotlarining ekologik huquqbuzarliklar yuzasidan sudga da'vo qo'zg'atishi uchun real imkoniyat yaratilishini talab qiladi.

Orhus konvensiyasi iqlimiy adolat uchun nima beradi? Asosan, uning uchinchi ustuni iqlim masalalarini sudga olib chiqish uchun protsessual asosni ta'minlaydi. Yevropa davlatlarida Orhus konvensiyasiga asoslangan iqlim da'volarining soni 2015-yildan beri sezilarli o'sdi. Jumladan, Buyuk Britaniyada bir qator neft-gaz loyihalari Orhus talablarini jamoat ishtiroki ta'minlanmaganlik asosida sudda bekor qilindi (Darpö, 2020).

O'zbekiston 2025-yil mart oyida Orhus konvensiyasini ratifikatsiya qildi (UzA, 2025). Bu holat mamlakatimizda ekologik ma'lumotlar olish, jamoatchilikni ekologik qarorlarga jalb qilish va sudga murojaat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirishi aniq. Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi O'zbekiston uchun nafaqat xalqaro majburiyatni bajarish, balki ichki ekologik savodxonlikni oshirish va fuqarolarning ekologik huquqlarini mustahkamlashning muhim bosqichi bo'ldi.

6. Markaziy Osiyoda ekologik xavfsizlik muammolari

Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oqibatlariga ta'sirchan mintaqalardan biri ekanligi bugun ilmiy jihatdan shubhasiz. Biroq masalani faqat ekologik ko'rsatkichlar bilan o'lchash yetarli emas — uning ijtimoiy va huquqiy o'lchami ham bor. Mintaqada ekologik xavfsizlikka eng katta tahdid solayotgan uchta omil — suv tanqisligi, cho'llanish va havo ifloslanishi — bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Suv masalasi mintaqadagi eng keskin geosiyosiy va ekologik muammo bo'lib qolmoqda. Amudaryo va Sirdaryo havzalari bo'yicha davlatlar o'rtasidagi suv taqsimoti masalalari — O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston o'rtasida — yanada hamkorlikni kuchaytirishni taqqazo etmoqda. Yana bir muhim mintaqaviy masala: 2022-yilda BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan Orol dengizi havzasini xalqaro ahamiyatga molik ekologik hududiy zona deb tan oldi — bu muhim siyosiy yutuq.

Cho'llanish muammosi ham kuchayib bormoqda. UN Convention to Combat Desertification (UNCCD, 2023) ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo hududining 20% dan ortig'i — taxminan 80 million gektar — degradatsiyaga uchragan. O'zbekistonda bu jarayon

qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini kamaytirishi va migratsiya oqimlarini vujudga keltirishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Iqlim muhojirligining huquqiy maqomi hali xalqaro darajada aniq belgilanmagan: CFR (2022) ta'kidlaganidek, "iqlim ekstremalliklaridan qochayotgan muhojirlar hozirda xalqaro huquq tomonidan himoyalangan va ularni qanday huquqiy tarzda ta'riflash bo'yicha ham konsensus mavjud emas."

Havo ifloslanishi mintaqaning sanoat markazlari va yirik shaharlarida — Toshkent, Olmaota, Bishkekda o'tgan mavsumdajiddiy muammo sifatida kuzatildi. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, bunda PM2.5 zarrachalar ko'rsatkichi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) yillik me'yoridan bir necha barobar yuqori bo'lgan va bu holat nafas yo'llari kasalliklari, yurak-qon tomir muammolari va bola o'limi darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

7. O'zbekistonda ekologik huquqlar: holat va istiqbol

7.1. Atrof-muhit siyosati

O'zbekistonda ekologik boshqaruv tizimi 1990-yillardan beri bir necha bor isloh qilindi. Hozirda asosiy vakolatli organ — O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi hisoblanadi.

O'zbekistonning yangilangan Milliy miqyosda belgilangan hissasi (NDC) 2021-yilda COP26 doirasida BMT Iqlim konvensiyasi kotibiyatiga topshirildi. Unda 2030-yilga qadar issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yil darajasiga nisbatan 35% ga kamaytirish maqsadi belgilangan (UNDP, 2022). 2025-yil noyabrda O'zbekiston yangilangan iqlim majburiyatlarini e'lon qilib, 2035-yilga qadar issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yil darajasiga nisbatan 50% ga kamaytirish maqsadini belgiladi (eco.gov.uz, 2025).

7.2. Ekologik sud da'volari mexanizmlari

O'zbekistonda ekologik nizolarni ko'rib chiqish quyidagilar orqali amalga oshiriladi. Fuqarolik sudlari ekologik zarar uchun tovon to'lash talabi bilan qo'zg'atilgan da'volarni ko'rib chiqadi. Ma'muriy sudlar davlat organlarining qarorlari ustidan shikoyatlarni ko'radi. Iqtisodiy sudlar korxonalarining ekologik qoidabuzarliklariga oid nizolarni hal qiladi.

Birinci muammo — protsessual to'siq: O'zbekiston Fuqarolik protsessual kodeksi bo'yicha sudga murojaat qilish uchun da'vogarning bevosita shaxsiy manfaati zarar ko'rgan bo'lishi shart. Bu ekologik da'volarda, ayniqsa kelajak avlod manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atilgan ishlarda, jiddiy to'siq. Ikkinchi muammo — ekspert xulosalari: iqlim va ekologiya sohasida mustaqil sud ekspertizasini o'tkazish imkoniyati cheklangan, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, mustaqil ekspertizani yanada rivojlantirish kerak. Uchinchi muammo — da'vo muddati: iqlim o'zgarishlarining oqibatlari uzoq muddatda namoyon bo'lganligi sababli, qachon da'vo qo'zg'atish mumkinligi aniq belgilanmagan. Jamoat tashkilotlarining ekologik da'vo qo'zg'atish huquqi ham qonunchilikda yetarlicha tartibga solinmagan.

7.3. Fuqarolarning ekologik huquqlari

O'zbekiston Konstitutsiyasi (2023) ekologik huquqlarni mustahkamlaydi. Xususan, 49-modda har kimning qulay atrof-muhitga va uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqini kafolatlaydi. Bu konstitutsiyaviy asos iqlimiy adolat tamoyili uchun potentsial huquqiy tayanch bo'la oladi.

Ammo konstitutsiyaviy norma va kundalik haqiqat o'rtasida katta tafovut mavjud. Ekologik ma'lumotlarga fuqarolarning erkin kirishi amaliyotini kuchaytirishi kerak: davlat idoralari ekologik monitoring ma'lumotlarini keng jamoatchilikka e'lon qilib borish kerak. Sanoat korxonalari atrofida yashovchi aholining ekologik muammolar haqida ma'lumot olish

va shikoyat bildirish yo'llari cheklangan. Jamoat muhokamasi o'tkazish tartibi qonunchilikda mavjud bo'lsa-da, amalda uning samaradorligini oshirish kerak.

7.4. Iqlimiy adolat istiqbollari

Climate justice — iqlim adolati — deganda iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlari eng zaif va kam huquqli aholiga ko'proq zarar yetkazishi, ammo ular bu oqibatlarni keltirib chiqarishga eng kam hissa qo'shganligi tan olinib, ularga nisbatan adolatli munosabat va himoya ta'minlanishi tushuniladi. O'zbekiston uchun bu tushuncha quyida keltirilgandek namoyon bo'ladi.

O'zbekiston global issiqxona gazi chiqindilariga atigi 0,3% hissa qo'shadi (O'zbekiston NDC, 2021, p. 19), lekin iqlim o'zgarishlarining oqibatlaridan nomutanosib darajada ko'proq zarar ko'rmoqda. UNDP (2021) ta'kidlaganidek, suv resurslarining kamayishi va yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi uzoq qurg'oqchilikka va sug'orish uchun suv tanqisligiga olib keladi, bu esa aholining katta qismini oziq-ovqat xavfsizligi xavfi ostiga qo'yadi. Bu global adolatsizlik bo'lib, xalqaro iqlim moliyasi va texnologiya uzatish mexanizmlari O'zbekiston kabi davlatlar uchun kuchaytirishi lozim.

8. Muammolar va huquqiy bo'shliqlar

O'zbekistonda ekologik huquqlarni iqlim kontekstida sudda himoya qilish masalalarini ko'rib chiqish zarur.

Birinchi muammo — iqlim o'zgarishi bilan bog'liq oqibatlarni aniqlash va isbotlash jarayoni murakkabligi. Iqlim o'zgarishlari va uning oqibatlari o'rtasidagi ilmiy aloqani sudda isbotlash texnik jihatdan murakkab. O'zbekistonda iqlim ilmiy tadqiqotlari yetarlicha rivojlanmagan va mustaqil iqlim ekspertlar salohiyatini kuchaytirish lozim. Bu fuqarolar va advokatlarning iqlim da'volarini yuritishini osonlashtiradi.

Ikkinchi muammo — qonunchilik bo'shliqlari. O'zbekistonda iqlim o'zgarishlari bilan bevosita bog'liq alohida qonun yo'q. Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun (1992), Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun (1996) va boshqa ekologik qonunlar iqlim tematikasini to'liq qamrab olmaydi. Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish majburiyatlarini bajarmaganlik uchun huquqiy javobgarlik mexanizmi qonunchilikda belgilanmagan.

Uchinchi muammo — sud tizimini ixtisoslashtirish zarurati. Iqlim o'zgarishi huquqi, xalqaro ekologik huquq va iqlimshunoslik — nisbatan yangi va tez rivojlanayotgan soha bo'lib, dunyoning ko'plab davlatlarida sudyalarda bu yo'nalishda maxsus tayyorgarlikdan o'tmoqda. O'zbekistonda ham sudyalarning iqlim huquqi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish, ekologik nizolarda ekspert xulosalarini baholash malakasini rivojlantirish — iqlim da'volarini samarali va adolatli ko'rib chiqishga zamin yaratadi.

To'rtinchi muammo — axborot olish cheklovlari. Ekologik monitoring ma'lumotlari ko'pincha yopiq yoki qisman ochiq. Sanoat korxonalarini emissiya ma'lumotlarini ommaga e'lon qilish majburiyatiga ega emas. Bu holat da'vogar tomonning dalil to'plashini qiyinlashtiradi.

Beshinchi muammo — O'zbekistonda ekologik huquq yo'nalishida ixtisoslashgan advokatlar soni juda kam.

9. Xulosa

Ushbu maqolada tahlil qilingan xalqaro sud ishlari — Neubauer, Duarte Agostinho va Pokiston tajribasi — bitta muhim xulosaga olib keladi: iqlim o'zgarishlari masalasida sudlar tobora kuchli ovozga aylanmoqda va bu tendentsiya dunyo bo'ylab davom etmoqda.

O'zbekiston bu jarayondan chetda qolmaydi — va qolmasligi ham kerak. Mamlakatimiz bugungi kunda iqlimiy adolatni rivojlantirish uchun jiddiy huquqiy asoslarga ega. 2023-yilgi yangilangan Konstitutsiya ekologik huquqlarni yangi darajaga ko'tardi. Parij bitimini ratifikatsiya qilish xalqaro majburiyatlarni qonuniy kuchga aylantirdi. 2025-yilda Orhus konvensiyasiga qo'shilish esa fuqarolarning ekologik axborot olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish va sudga murojaat qilish huquqlarini xalqaro kafolatlar bilan mustahkamladi. Bu uchta yutuq birgalikda O'zbekistonda iqlimiy adolat uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqlim huquqining rivojlanishi faqat qonunlardan emas, balki fuqarolar ishtiroki, mustaqil sud hokimiyati va jamoatchilik ongi uyg'unligidan kelib chiqadi. O'zbekistonda bu uchala omil rivojlanish bosqichida bo'lib, ijobiy dinamika kuzatilmoqda — Ekologiya harakat partiyasining faolligi, yoshlar ekologik harakatlari va nodavlat tashkilotlarning o'sib borayotgan roli buning dalilidir.

Alohida ta'kidlash kerakki, 2024 yil Yurtboshimiz farmoni bilan (PF-106 son) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim Kengashi tashkil etildi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Ali, S. H., & Bhutta, M. N. (2020). Climate Litigation in Pakistan: An Analysis of Legal Strategies and Outcomes. *Asian Journal of Law and Society*, 7(2), 315–334.
2. BVerfG (Bundesverfassungsgericht). (2021). Beschluss des Ersten Senats vom 24. März 2021 – 1 BvR 2656/18. Federal Constitutional Court of Germany.
3. Darpö, J. (2020). The Orhus Convention and Its Influence on Climate Litigation in Europe. *Journal of Environmental Law*, 32(3), 447–468.
4. ECHR (European Court of Human Rights). (2024). Verein KlimaSeniorinnen Schweiz and Others v. Switzerland. Application No. 53600/20. Grand Chamber Judgment.
5. IPCC (Intergovernmental Panel on Climate Change). (2022). *Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. Sixth Assessment Report, Working Group II*. Cambridge University Press.
6. Nachmany, M., & Setzer, J. (2022). *Global Trends in Climate Change Legislation and Litigation: 2022 Update*. Grantham Research Institute on Climate Change and the Environment, LSE.
7. Peel, J., & Osofsky, H. M. (2020). Climate Change Litigation as a Regulatory Mechanism. *Annual Review of Law and Social Science*, 16, 189–210.
8. Savaresi, A., & Auz, J. (2019). Climate Change Litigation and Human Rights: Pushing the Boundaries. *Climate Law*, 9(3), 244–262.
9. Setzer, J., & Higham, C. (2023). *Global Trends in Climate Change Litigation: 2023 Snapshot*. Grantham Research Institute on Climate Change and the Environment, LSE.
10. UNEP (United Nations Environment Programme). (2020). *Environmental Rule of Law in Central Asia: Status and Prospects*. Nairobi: UNEP.
11. UNCCD. (2023). *UNCCD Data Dashboard: Central Asia Land Degradation*. United Nations Convention to Combat Desertification. <https://www.unccd.int/news-stories/press-releases/over-one-fifth-central-asias-land-degraded-new-un-data-warns>
12. UNFCCC. (2015). Paris Agreement. FCCC/CP/2015/10/Add.1. United Nations Framework Convention on Climate Change.
13. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. (2025, 18-noyabr). *Uzbekistan Will Reduce Its Greenhouse-Gas Emissions by 50% by 2035*. <https://gov.uz/en/eco/news/view/102865>

14. World Bank. (2023). Uzbekistan Country Climate and Development Report (CCDR). Washington, D.C.: The World Bank Group. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/ccdr>
15. Wewerinke-Singh, M. (2021). State Responsibility, Climate Change and Human Rights under International Law. Oxford: Hart Publishing.
16. BMT Bosh Assambleyasi. (2021). Rezolyutsiya 76/300: Toza, sog'lom va barqaror atrof-muhitda yashash inson huquqi sifatida. UN Doc. A/RES/76/300.
17. BMT Inson Huquqlari Kengashi. (2008). Rezolyutsiya 7/23: Inson huquqlari va iqlim o'zgarishi. UN Doc. A/HRC/RES/7/23. https://ap.ohchr.org/documents/e/hrc/resolutions/a_hrc_res_7_23.pdf
18. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
19. O'zbekiston Respublikasi. (1992). Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonun. Toshkent: Oliy Kengash.
20. O'zbekiston Respublikasi. (1996). Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi Qonun. Toshkent: Oliy Majlis.
21. UNDP. (2022, 28-aprel). Contributions of Uzbekistan's Private Sector to Reducing Greenhouse Gas Emissions. United Nations Development Programme. <https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/contributions-uzbekistans-private-sector-reducing-greenhouse-gas-emissions>
22. IFAS (International Fund for Saving the Aral Sea). (2022). Aral Sea Basin: State of the Environment Report. Tashkent: IFAS Secretariat.
23. Orhus Convention. (1998). Convention on Access to Information, Public Participation in Decision-Making and Access to Justice in Environmental Matters. UN ECE. UN Doc. ECE/CEP/43.
24. Duarte Agostinho and Others v. Portugal and 32 Others. (2023). Application No. 39371/20. European Court of Human Rights.
25. Council on Foreign Relations. (2022). Climate Change Is Fueling Migration: Do Climate Migrants Have Legal Protections? <https://www.cfr.org/in-brief/climate-change-fueling-migration-do-climate-migrants-have-legal-protections>
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017). Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida. PF-5024-son Farmon, 2017-yil 21-aprel. <https://lex.uz/docs/-3174498>